

BOLALARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH

KO'NIKMALARI

Azamov S. B.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institute Paxta sanoat texnologiyasi fakulteti
Yengil sanoat mashinalarini ekspluatatsiya va loyihalash yo'nalishi 1-kurs talabasi

Imamova N. U.

Paxta sanoat texnologiyasi fakulteti tyutori
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirishdagi muammolar, ta'lim tizimida yoshlarni harbiy vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki kompetentlikni rivojlantirish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar va zarur chora tadbirlar hamda yoshlarda kasb tanlashdagi ko'nikmalarni shakillanish omillari, ularda harbiy kasbga bo'lgan ko'nikmlarni shakillantirishning ayrim masalalari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: harbiy kasb kompetentligi, —Harbiy vatanparvarlik konsepsiyasi, Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishi, Mudofaa Doktrinasi, rasmiy kompetentlik, Qurolli Kuchlar tizimi, vatanparvarlik, ta'lim va armiya uyg'unligi, Milliy g'oya va mafkura ruhiyati. Jahonda harbiy ta'lim sohasiga zamonaviy bilim, ilg'or xorijiy tajribalar, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish asosida ta'lim muassasalarida o'quvchilarni dastlab harbiylikka tayyorlash borasida ularda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga alohida ye'tibor qaratilmoqda. Xalqaro miqyosda maktab o'quvchilarining kompetentlik darajasini rivojlantirish va baholash strategik ahamiyat kasb etib, harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ijtimoiy muhit talablariga integratsiyalash, kompetensiyalarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilg'or inovatsion mexanizmlarini ishlab chiqishni taqazo etmoqda.

Bugungi kunda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlodga uzluksiz ta'lim berish va uni tarbiyalash jarayonini yaxlit qamrab oladigan yagona ta'lim majmui hisoblanadi. Bunda ta'lim tizimining har bir bo'g'ini alohida o'rin va mas'uliyatga egadir. Dasturni to'liq amalga oshirish, qo'yilgan vazifalarga erishish ana shu bo'g'inlarning holati va rivojlanish darajasiga, ularning o'zaro uyg'unligiga bog'liqdir. Ta'lim muassasalarida ofitserlikka tayyorlash kasbiy kompetentligini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish harbiy ta'lim tizimini modernizatsiyalash eng ilg'or innovatsion yondashuvlarga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tadbqiq etish

va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarinig imkoniyatlaridan keng ko'lamda foydalanishni yangi sifat darajasiga ko'tarishni talab etmoqda.

Maktablarda, o'rta ta'limda, ta'lim sifatini yanada rivojlantirish, yoshlarda harbiylikka bo'lgan qiziqish va ishonch ruhiyatini, jismoniy madaniyat, kasbiy tayyorgarlik, kasbga yo'naltirish masalalari bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bugungi kunda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, milliy qadriyatlarga, xalqlarning madaniyatiga va o'zligiga bo'lgan tahdidlar, yod g'oyalarni singdirishga bo'layotgan urinishlar kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonlari jadal rivojlanayotgan sharoitda yoshlar eng zaif qatlam bo'lib qolayotganligi sababli bu yo'nalishda qo'shimcha kompleks chora-tadbirlar qabul qilinishi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda yoshlarni tug'ilgan va yashab kelayotgan ona zaminini sevish ardoqlash hamda harbiy vatanparvarlik tuyg'usida tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi. Xozirgi davrda Internet manbalari va OAV(ommaviy axborot vositalari) axborotlarining ijtimoiy hayotdagi o'rni tobora mustahkamlanib, jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilar va yoshlar ongi, dunyoqarashi siyosiy saviyasini shakllantiruvchi asosiy omilga aylanmoqda. Endilikda demokratik davlat, yerkin fuqarolik jamiyati haqidagi konsepsiyalarni axborot sohasidagi islohotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'tgan asrning ikkinchi yarmida vujudga kelgan Internet tarmog'i axborot sohasida tub burilish yasadi. Endilikda an'anaviy OAV ning informatsion texnologiyalar asrida o'z mavqeini saqlab qolishi ko'p jihatdan global tarmoq imkoniyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Bu borada yurtboshimiz alohida ta'kidlab, «...bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan keng foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi», — deya yaratilgan imkoniyatlardan unumli foydalanishga chaqirganlar [1]. Albatta, yosh avlod dunyoqarashini kengaytirish va bilimini oshirishda mazkur axborot manbalari muhim ahamiyatga molik. OAV va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlarini inkor etmagan holda, uning yoshlar orasida samarasiz, salbiy ta'sirga ega bo'lgan imkoniyati mavjudligini ham ta'kidlash lozim. Telekanallarda namoyish etilayotgan va ijaraga beriladigan hamda sotiladigan minglab video, ijtimoiy tarmoq, lazer disklari vositasida tarqatilayotgan jangari filmlarda yashash uchun kurash g'oyasi targ'ib etiladi. Ularning yoshlar ongini zaharlash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirish, milliy nigilizm va manqurtlikka muhtalo qilishi o'z-o'zidan ayon va ochiq haqiqatdir.

Yoshlarda buzg'unchi, destruktiv g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitet hali to'la shakllanmaganligini, ularda eshitgan yoki o'qigan ma'lumotiga juda tez ishonishini nazarda

tutsak, bu ancha ye'tibor qaratish zarur bo'lgan global muammodir. Ta'kidlash lozimki, Internetdan tarqatilayotgan qo'poruvchilik ruhidagi axborotlar orqali ba'zan harbiy harakatlar evaziga amalga oshirib bo'lmaydigan maqsadlarga ham erishish mumkin. Bunday axborot xurujlari esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtainazari va ye'tiqodini maqsadli ravishda o'zgartirishga qaratilganligini unutmaslik kerak. Buning asosiy sabablaridan biri esa tajovuzkorlikni targ'ib etuvchi tele, radio, audio, video va multimedia mahsulotlari, internetdagi ma'lumotlar, kompyuter o'yinlarining ko'payib borayotgani, xilma-xil usullarda tarqatilayotganidir. Ularning barchasi bolalar va yoshlarni psixik va psixoemotsional holatiga bosim o'tkazish, ularni zimdan boshqarish axboriy-psixologik ta'sir o'tkazishning samarali vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Ommaviy axborot vositalari eng asosiy, qudratli va ta'sirchan mafkura vositaligi hozirgi yoshlarning ongiga ijobiy va salbiy tomonlama ta'sir etmoqda. Chunki ommaviy axborot vositalari ommaning o'ziga xos tarbiyachisi, muhim tadbirlarning tashkilotchisi, dolzarb muammolarni hal qilishning ta'sirchan quroli bo'lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlarimiz va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya va demokratik tamoyillari hamda vatanparvarlik g'oyalari targ'ib-tashviq qilinadi. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy istiqlool va vatanparvarlik g'oyasini singdirishning yana bir muhim jihati mavjud. Bu jihat - axborot terroriga, mafkuraviy tahdidlarga munosib javob berish, ma'naviymafkuraviy jihatdan xalqimizni tobe etishga intilishlarning payini kesish va O'zbekiston fuqarolarida mafkuraviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq ommaviy axborot vositalarining ta'sir kuchini ko'rsatadigan shunday bir gap bor —har qanday puch g'oya, uydirma haftasiga uch martadan to'rt yil davomida takrorlansa – —haqiqatll tayyor bo'ladi, odamlar unga chippachin ishonadilar.

Oxirgi paytlarda informatsion hurujlarning tez-tez uyushtirilayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganligidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol - axborotdir. Bunday qurol yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda yoshlarning ongi va qalbi nishonga olinadi. Garchi u daydi o'q singari insonni jismonan yo'q qila olmasa-da, uning qo'poruvchilik kuchi, keltiradigan talofotlari har qanday ommaviy qirg'in qurolinikidan kam emas. Chunki bu qurol yordamida onga berilgan zarbalar kishini adashtiradi, uni o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi va demak insonni boshqarish, uning ustidan hukmronlik qilish imkonini beradi. Aslida, axborot maqsadga erishishning eng arzon vositasi ham sanaladi.

Haqiqatan ham, informatsion hurujlar uyushtirish uchun u qadar ko'p mehnat, u qadar ko'p harakat, u qadar ko'p harajat talab etilmaydi. Garchi bunday mafkuraviy yekspansiya otishmalar va qon tukishlarni keltirib chiqarmasa-da, milliy o'zlikni anglashni zaiflashtirish evaziga tanazzulga olib keladi. Zamonaviy OAV, televidenie, kompyuter, internet, uyali telefon va boshqa vositalar, insonlar, ayniqsa, yoshlarning milliyligi, tafakkuri va dunyoqarashini o'zgartirib yubormoqda. Taraqqiy qilgan mamlakatlarning mazkur vositalar

yordamida jahon xalqlari ongi, dunyoqarashi va turmush tarzini bir qolipga solish hamda unga o'zlari shakllantirayotgan «ommaviy madaniyat»ni singdirishi bosh strategik siyosatga aylantirayotganligida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Bugungi kunda global axborot makonidagi qarama-qarshilik, inson, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurashning kuchayishi sharoitida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining roli va ahamiyati ortib bormoqda. Shuning uchun davlat rahbari tomonidan aholining va birinchi navbatda yoshlarning harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi tizimini takomillashtirish, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb qilish, intellektual va ijodiy salohiyatni namoyon qilishga sharoit yaratish yuzasidan ko'rsatmalar berildi [7]. O'smirlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash xamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va davlat xizmati uchun kadrlar zaxirasini tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida belgilangan vazifalar o'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirishini ta'minlaydi. Mamlakatimizda olib borilayotgan harbiy islohotlar tufayli Qurolli Kuchlarimiz uchun yuqori malakali mutaxassislarni yuksak intellektual ma'naviy-axloqiy salohiyatga ega bo'lgan ofitser kadrlarni tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezident tomonidan 2017–2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi asosida, mamlakat hayotining boshqa jabhalari bilan bir qatorda, harbiy sohaning eng muhim yo'nalishlari bo'yicha zamon talablariga mos qarorlar qabul qilingani, amalga oshirilgan tizimli va strategik kompleks chora-tadbirlar natijasida qisqa davr ichida milliy armiyaning jangovar shayligi va umuman mamlakatning mudofaa qobiliyati sezilarli darajada oshgani ta'kidlab o'tildi.

Yig'ilishda davlat rahbari Qurolli Kuchlarni rivojlantirish va mamlakat mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash hamda bu borada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or innovatsiyalarni keng tatbiq etish bo'yicha muhim ko'rsatmalar berdi. Harbiy kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish hamda harbiy ilmni rivojlantirish borasida Qurolli Kuchlar Oliy bosh qo'mondoni tomonidan harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganib, qo'shnlarning tayyorgarlik usul va uslublarini yanada takomillashtirish vazifasi qo'yildi. Bunda harbiy ta'lim tizimida boshlangan islohotlarni uzviy davom ettirish, oliy harbiy bilim yurtlari, litsey va kollejlari, jumladan, «Temurbeklar maktabi» harbiy akademik litseylari faoliyatini takomillashtirish, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilar qalbida milliy ruh, ona-Vatanga mehr va sadoqat, adolat tuyg'usini har tomonlama kuchaytirish, buyuk ajdodlar, jumladan, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi sarkardalarning boy jang san'atidan keng foydalanish muhimligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Shuningdek, Toshkent shahrida barpo etilgan «G'alaba bog'i» va «Shonsharaf» muzeyi majmuasini harbiy xizmatchilar, mamlakat aholisi, ayniqsa, yoshlar uchun harbiy tarixni va buyuk ajdodlar qahramonligini o'rganish ilmiy markaziga aylantirish bo'yicha ko'rsatmalar

berildi. Mamlakat aholisini va yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning fuqarolik pozitsiyasini kuchaytirish bilan bog'liq ishlarni «Jasur jangchi — yoshlar uchun namuna» shiori ostida yanada jadallashtirish, harbiy okruglar qo'mondonliklariga kamida 10 tadan maktabni otaliqqa olish hamda harbiy qism komandirlari tomonidan ularda vatanparvarlik va harbiy shon-sharaf darslarini yo'lga qo'yish vazifasi qo'yildi.

Qurolli Kuchlarda yaratilgan zamonaviy infratuzilmadan foydalangan holda uyushmagan yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bilan birga, mehnat bozorida talab qilinadigan kasb-hunarga o'rgatish bo'yicha ishlarni tashkil etish vazifasi ham qo'yildi. Shuningdek, prezident, — «o'z farzandlarida yuksak vatanparvarlik ruhini kamol toptira olmagan davlat, qanday qudratli qurolga ega bo'lmasin, mudofaa qobiliyatini mustahkamlay olmaydi», — deya ta'kidlab o'tdi [1]. Bundan tashqari, yig'ilishda mamlakat mudofaa sanoati kompleksini yanada rivojlantirish, davlat chegaralarini qo'riqlash tizimini takomillashtirish, favqulodda vaziyatlar prognoz va monitoring qilish hamda avariya va texnogen halokatlarning oldini olish bo'yicha ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha zarur topshiriqlar berildi. Prezident Shavkat Mirziyoev harbiy oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, sog'lom turmush tarzi va bolalar tarbiyasiga yondashuvlarni namunali darajaga ko'tarish, harbiylar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va uy-joy bilan ta'minlash ishlari kelgusida ham muhim va ustuvor yo'nalish sifatida qolishini qayd etdi.

Tadbir yakunida davlat rahbari Qurolli Kuchlarni yanada rivojlantirish bo'yicha olib borayotgan ishlar, birinchi navbatda, xalqimizning xavfsizligi, tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan yangi O'zbekistonni barpo etish bosh talab ekanini ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham —O'rta ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy tuzumi suveriniteti, xududiy yaxlitligini muhofaza qilish, fuqarolik, millatlararo va konfessiyalararo tinchlik hamda totuvlikni mustahkamlash, davlatning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasining jangovor qudrati va salohiyatini oshirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF4947-son —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakatlar strategiyasi to'g'risidagi farmoni, 2018-yil 4-avgustdagi PQ-3898- son —O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi Qarori, Vazirlar Maxkamasining 2018-yil 23-fevraldagi 140- son —Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Qarori va mazkur faoliyatga doir boshqa normativhuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Hozirgi axborot makonidagi qarama-qarshilik, odamlar, ayniqsa yosh avlodning ongi va qalbi uchun kurash kuchaygan sharoitda harbiyvatanparvarlik ruhidagi tarbiyaning o'rni va ahamiyati tobora ortib borayotgani alohida qayd etildi. Aholini, avvalo, yoshlarni shunday

ruhda tarbiyalash tizimini takomillashtirish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga jalb qilish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha qo'shimcha topshiriqlar berildi. – Armiya moddiy jihatdan eng zamonaviy va zarur vositalar bilan ta'minlangan bo'lishi mumkin, lekin axloqiy jihatdan zaifligi, jangovar ruhi, Vatanga sodiqlik va muhabbat, uning taqdiri uchun mas'uliyat hissi yo'qligi yoki loqaydlik tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib kelishi mumkin, – deya ta'kidladi davlatimiz rahbari.

O'zbekiston 30 yoshgacha bolgan aholisi butun aholining 60 foizini tashkil etadigan noyob demografik holatga yuz tutish arafasida. Keyingi yigirma yilda bugungi kundagi katta bolalar va yoshlardan tashkil topgan aholi ishchi kuchiga aylanadi, bu esa O'zbekiston tarixidagi eng katta ishchi kuchi bo'ladi. Bugungi kundagi to'g'ri sarmoyalar bilan, hozirgi yoshlar O'zbekistonni keyingi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga ko'taradigan avlodga aylanishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, bugungi kundagi bolalar va yoshlarning farovonligini ta'minlashga muvofiq mablag'ni sarflamaslik yoshlarning huquqlarini ta'minlamaslik va ular orasida ishsizlik darajasini kengayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy va diniy yekstremizm uchun poydevor yaratishi va mehnat migratsiyasini kuchaytirishi va shu bilan birga juda ham qimmat —demografik dividendni yo'qotishga olib kelishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati har bir yosh fuqaro o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishi uchun zarur ko'mak va imkoniyatga ega bo'lishini ta'minlashga ustuvor ahamiyatni qaratmoqda. Davlatning yoshlar bo'yicha siyosatini takomillashtirish O'zbekistonning 2017-2021 yilgi rivojlanish strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biridir [8]. O'zbekiston Respublikasida aholining 60 foizni yoshlar tashkil qilar ekan, shundan kelib chiqib unib o'sib ulg'ayib kelayotgan yosh avlodni harbiy vatanparvarlik tuyg'usi bilan tarbiyalash muhim vazifa, xozirgi kundagi murakkab ishni avvalambor oiladan boshlamoq juda ham zarur, chunki farzanga dastlabki tushunchani va tarbiyani ota-ona beradi, keyingi o'rinlarda esa ta'lim muassasalari.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirish uchun dastlab oilada milliy qadryatlarimizni, milliy tariximizdagi buyuk sakardalar hayotini yuksak milliylik ruhida yetkazmoqlik va vatanparvar ajdodlarimiz to'grisidagi kitoblarni qiziqarli qilib o'qib berish kerakligi o'zining ijobiy natijasini ko'rsatadi. O'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish borasida maktablar, litseylar va texnikumlarda bir oyda bir marotaba Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qismlarga o'quv yekskursiyalarni tashkillashtirish zarur, keyingi o'rinlarda o'quvchilarni yanada qiziqitirib o'qitish uchun yoshlarni dastlabgi harbiy chaqiriqqa tayyorlash darslariga nafaqat harbiy malakasi bo'lgan shuningdek psixologik, pedagogik ilmi va tajribasi ega bo'lgan kadrlarni jalb qilish zarur

Shuningdek xizmat qilib kelayotgan harbiylarning ijtimoiy holatini ochiqlik va shaffoflik asosida tekshirib o'rganib chiqib ijtimoiy axvoli moddiy yoki ma'naviy jixatdan qiyin axvolda bo'lgan harbiy xizmatchilarning oilalariga davlat tomonidan yordam berilishi kerakligi, harbiy

xizmatchilarning har bir muammosi birgalikda hamjihatlikda hal qilinishni ham joriy etish kerakligi men oylaymanki bu ishlar insonda

vatanga bo'lgan harbiylikka bo'lgan mexrni kuchaytiradi. Chunki Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkiblarida xizmat qilayotgan har bir harbiy xizmatchi yoki xodim bo'lsin barchasi oddiy inson lekin hamma inson harbiy hizmatchi bo'la olmaydi. Harbiy xizmat qilayotgan harbiy o'z ishida mamnuniat bilan rozichilik kayfiyatida hursand bo'lib ishlagan harbiy xizmatchi ko'pgina yutuqlarga erishadi va kasbga bo'lgan muhabbat ila farzandalrida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirishga turtki bo'ladi. O'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda hozirda xizmat qilib kelayotgan harbiy xizmatchilarning ish yuklamalarini o'rganib chiqib teng taqsimlanishi oilada otaning kasbini farzandi davom ettirishiga zamin yaratib beradi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, milliy kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish, ixtisoslashtirilgan litseylar o'quv jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish bo'yicha maqsadli ishlarni amalga oshirish imkoniyati tug'ildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Mudofaa Doktrinasi va Qurolli kuchlarning isloh qilinishi armiyani modernizatsiyalash bo'yicha choratadbirlarni maqsadli amalga oshirishga yordam bermoqda, bunda ixtisoslashtirilgan harbiy litseylarga alohida ye'tibor qaratilmoqda, zero ularning bitiruvchilari kelgusida oliy harbiy ta'lim muassasalarida o'qish imkoniyatiga egadirlar. So'ngi yillarda o'quvchi yoshlar jismoniy tayyorgarligining ahamiyatini aniqlashga qaratilgan tadqiqotlar bu borada katta tajriba to'plaganligini ko'rsatadi, u oldinga qo'yilgan vazifalarni hal etish maqsadida o'rnatilayotgan masalalarning umumiy hususiyatlarini aniqlashga imkon berdi.

Mamlakatimizdagi milliy istiqlol g'oyalari, ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida ta'lim-tarbiya va harbiy vatanparvarlik jarayonida foydalanish, yangilangan jamiyat manfaatlariga xizmat qilmog'i kerak. Bu jarayon ta'lim sohasidagi davlat siyosatining huquqiy asoslarini yaratib berishdan boshlanadi. Harbiy vatanparvarlikni istiqlol g'oyalari asosida yuqori pag'onaga ko'tarish-davr talabi, jamiyatning ijtimoiy topshirig'i. Har qanday jamiyat kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Shunday ta'lim-tarbiya olgan avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga ega bo'lgan vatanni ximoya qilishdek yuksak vazifani bajarishga xaqlidir. Xulosa qilib aytganda Qurolli Kuchlarni isloh qilish va professional harbiy kadrlarni tayyorlash hamda bo'lajak harbiylik kasbini tanlovchi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish zaruriyati mamlakatdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat hamda jahonda yuzaga kelayotgan geostrategik holatdan kelib chiqishni taqazo etmoqda. Respublikamiz mudofaa tizimida bo'lajak harbiy xizmatni tanlovchilarni

tayyorlash sohasini isloh qilishning asosiy zaruriyati ta'lim tizimida harbiy vatanparvarlikka xizmat etuvchi interaktiv tizimni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

Yuksak intellektual salohiyatga, zamonaviy fikrlash hamda dunyoqarashga ega, davlatimiz manfaatlari va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor bo'lgan har tomonlama kamol topgan, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalash tizimini yaratishga qaratilgan davlat siyosatini faol va izchil amalga oshirishni ta'minlash maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Davlat xavfsizlik xizmati, Milliy gvardiyasi tarkibida prinsipial yangi —Temurbeklar maktabi harbiy-akademik litseylari tashkil etilishi ham bu boradagi muhim islohotdir.

Bu borada bir qator muammolar ham bo'lib, sohada quydagi islohotlarni amalga oshirish muhimdir:

- O'zbekistonda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatida demokratik tamoyillarning mavjudligi, uning mustahkamlanib borishi o'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish, ularning mafkuraviy ma'naviy va siyosiy-huquqiy madaniyatni shakllantirish milliy xavfsizligimizni ta'minlashning muhim omilidir;

- mustaqillik mafkurasi o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitib, ijtimoiy faolligini oshiradi;

- o'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda ijtimoiy- gumanitar fanlarni chuqur o'rganish siyosiy, huquqiy, ma'naviy va yestetetik madaniyatni kamol toptirib, kasbiy sifat va hususiyatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi;

- davlat va jamoat tashkilotlari faolligini takomillashtirish yoshlar va aholining professional armiyaga bo'lgan munosabatini yanada mustahkamlaydi, ularning ko'ngilli xizmatga borish istagini oshiradi.

- Qurolli Kuchlar tizimida harbiy ta'lim-tarbiyani rivojlantirish pedagog kadrlarning malakisini oshirish kasbiy tarbiyaning yangi usul va vositalarini yaratishni talab qiladi;

- maktab, litsey, texnikum va harbiy qismlar kutubxonalarini o'quvslubiy va ma'naviy-ma'rifiy adabiyotlar bilan boyitish, harbiy xizmatchilarning siyosiy madaniyati hamda tafakkurini shakllantirib, keng qamrovli fikrlashga o'rgatadi.

- ta'lim musassalarida bo'lajak harbiy xizmatchi va ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, bugungi ta'lim tizimida halqarolashuv va globallashtirish tendensiyalarni harbiy ta'lim sifatini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirishni taqazo etadi

- o'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish va boshqarish strategiyalarini belgilash ta'limni modernizatsiyalash sharoitida ularning kasbiy kompetentligi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan

malaka talablari asosida kompetensiyalar modelini ishlab chiqish samarali yondashuvlardan ekanligini ko'rsatadi;

- ta'lim muassasi bitiruvchisining kvalifikatsion xarakteristikasi zamonaviy talablarga mos bo'lmagani uchun qator ilg'or xorijiy mamlakatlarda —O'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish modeliga o'tishni taqazo etdi. Bu o'z navbatida bo'lajak harbiy-xizmatchi va ofitserning birbiriga bog'langan va o'zaro ta'sir etuvchi to'rtta tayanch kompetensiya guruhlaridan iborat bo'lgan —O'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish modelini yaratishga asos bo'ldi.

- ta'lim muassasalarida bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini takomillashtirishda tizimlilikni ta'minlash, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va inovatsion yondashuvlarni o'zlashtirish asosida kasbiy kompetentlik darajasidan kelib chiqqan holda ta'lim dasturlarini tabaqalashtirish, muqobil shakllarni hamda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishga qaratilgan kreativ texnologiya tuzilmasini amaliyotga joriy etishning mexanizmlarini harbiy ta'lim talablari asosida ilmiy-nazariy jihatdan asoslandi.

- o'quvchida vatanparvarlik tuyg'usini tarbiyalash orqali dastlabki harbiy ofitserlik kasbiy kompetentlikni takomillashtirish modeli bo'lajak harbiy-xizmatchi va ofitserlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish sohasiga oid tayanch kompetensiyalari bilan belgilanishi, bo'lajak harbiyxizmatchi va ofitserlarda kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning yuqori, o'rta, past darajalarini aniqlashga yordam beradi.

REFERENCES:

1. . Buraliyeva, S. (2023). USE OF WORDS IN OYBEKS SKILL OF ARTISTS. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(5), 18-22.
2. Каримова, З. (2023). Концепт «Родина» в русской языковой картине мира. Журнал иностранных языков и лингвистики, 5(5).
3. Каримова, З. (2023). Концепт Родина в пространстве русской культуры и русского языка. Научный вестник НамГУ, 1(3), 231-237.
4. Каримова, З. (2021). Важность направления студентов к самостоятельному и творческому мышлению в процессе обучения. Архив Научных Публикаций JSPI.
5. Каримова, З. (2021). How to understand that a teacher is a professional: 5 main signs. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Jabborova, O. M., & Saparbayeva, D. T. U. Q. (2023). Boshlang'ich ta'limda raqamli texnologiyalarning ahamiyati.
7. Quvondiqov, S. S. (2022). Dynamic situation as a meta way of perception and understanding of competitive activity in martial arts.

8. Кувондигов, С. (2023). ОЗДОРОВИТЕЛЬНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ СИСТЕМЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 6(3).
9. Кувондигов, С. С. (2023). STRUCTURE AND LONG-TERM DYNAMICS OF COMPETITIVE ACTIVITY OF HIGHLY QUALIFIED BASKETBALL PLAYERS. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 6(3).
10. Sidikovich, K. S. (2023). Analysis of national and foreign experiments on the diagnosis of processes for the development of a sense of patriotism. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 243-248.
11. Kuvondikov, S. S. (2023). MODEL FOR THE DEVELOPMENT OF A SENSE OF PATRIOTISM IN FUTURE EDUCATORS. Confrencea, 6(6), 289-292.
12. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices, 1(2), 259-264.
13. Sidikovich, K. S. (2023). THEORETICAL BASES OF DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM IN FUTURE TEACHERS BASED ON THE COMPETENCE APPROACH. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 15, 363-366.
14. Kuvondikov, S. (2023). THE CONNECTION OF EMOTIONS WITH THE MENTAL STATE OF HIGHLY QUALIFIED WRESTLERS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 15, 114-120.
15. Кувондигов, С. (2022). ГАНДБОЛЧИ ДАРВОЗАБОНЛАР ЎЙИН САМАРАДОРЛИГИ ВА УНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(5).
16. Кувондигов, С. (2022). СПОРТЧИЛАРНИ ТАЙЁРЛАШДА ПСИХОЛОГИЯНИНГ ЎРНИ ВА СПОРТЧИЛАРНИНГ ПСИХИК ЖАРАЁНИНИ ЎРГАНИШ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(6).
17. Кувондигов, С. (2022). СВЯЗЬ ЭМОЦИЙ С ПСИХИЧЕСКИМ СОСТОЯНИЕМ БОРЦОВ ВЫСОКОЙ КВАЛИФИКАЦИИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(7).
18. Quvondiqov, S. S. (2023). Sport mahoratini oshirish (Yengil etletika). O'quv qo'llanma, 1(1), 175.
19. Quvondiqov, S. S., Dusanov, S., Odilov, O., Junayeva, A. (2023). Sport mahorati oshirish (Gimnastika). O'quv qo'llanma, 1(1), 180.
